

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI TARIXIDA FE‘LLARNING SATHLARGA AJRATILISHIDAGI TAHLILY MA‘LUMOT.

Abdurazzoqova Barchinoy Muhiddinovna

*“Madinabonu” xususiy maktabi
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu tezisda o‘zbek tilshunosligi tarixida fe‘l so‘z turkumining turli sathlar asosida o‘rganilishi tahlil qilinadi. Fe‘llarning leksik-semantik, morfologik, sintatik va funksional-uslubiy sathlari misollar asosida yoritilib, ularning til tizimidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: fe‘l, sath, leksik-semantik, morfologik, sintaktik, funksional-uslubiy.

O‘zbek tilshunosligida fe‘l so‘z turkumi harakat va holatni ifodalovchi asosiy grammatik birlik sifatida keng tadqiq etilgan. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlasak, qadimdan fe‘llarni sathlarga ajratish ularning mazmuni, shakli va vazifasini o‘rganishga alohida e‘tibor berilgan. Xususan Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit-turk” asarida ilk bor fe‘l sathlarini tahlil qilgan va asarida misollar bilan isbotlagan. Tahli jarayonida fe‘lning leksik-semantik, morfologik, sintaktik, funksional-uslubiy sathlari mavjudligini aniqlagan. Turkiy tilning asoschisi, XV asrda ijod qilgan Alisher Navoiy ham fe‘lning ma‘nolarini juda chiroyli tahlil qilgan bo‘lsa-da, zamonaviy tilshunoslar kabi “sath” tushunchasi ostida emas, balki badiiy-amaliy xarakterda yondashgan. Masalan, *kelmoq* fe‘lining *yetmoq*, *yetib bormoq*, *tashrif buyurmoq* kabi variantlarini keltirish orqali uning semantic rang-barangligini ko‘rsatgan. Alisher Navoiy fe‘l sathlarini nazariy jihatdan maxsus qismlarga ajratmagan.

Leksik-semantik sathda fe‘llar ifodalagan ma‘nosiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi. Masalan, yurmoq, yugurmoq harakat fe‘llari, uxlamoq, o‘tirmoq holat fe‘llari hisoblanadi (Bola uxlayapti). Bu sath orqali fe‘llarning sintaktik vazifasini ham belgilab olishimiz mumkin. Bu haqida akademik A. G‘ulomov shunday deydi: “Fe‘llarning leksik-semantik xususiyatlari xususiyatlari ularning harakat, holat va jarayonni ifodalash imkoniyatlari bilan bevosita bog‘liq.” [1/ 45-47-b] Zamonaviy tilshunoslikda esa bu sathni tizimli va kompleks o‘rganishning muhim bo‘g‘ini sifatida baholaydi. Ya‘ni, fe‘lning ma‘nosi grammatik va sintaktik tahlili bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Demak, ushbu sathni so‘zning asosiy ma‘nosini ochib beruvchi muhim bosqich sifatida baholasak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Morfologik sathda fe‘lning grammatik shakllari o‘rganiladi. Bu sath fe‘lning zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kabi kategoriyalarini qamrab oladi. Masalan, a) zamon : yozdi (o‘tgan zamon), yozyapti (hozirgi zamon), yozar (kelasi zamon); b) mayl : bor

(11th international scientific and practical conference)

(buyruq mayl); borsa (shart mayl) d) nisbat : yozdi (aniq nisbat); yozildi (majhul nisbat). Morfologik sath fe'ning shaklan o'zgarishini va grammatik imkoniyatlarini ko'rsatadi. Professor M.Mirtojiyev morfologik sath orqali fe'ning funksional va kommunikativ imkoniyatlarini belgilab beruvchi muhim tizim sifatida baholaydi. . [2/78-82-b] Ya'ni uning ma'nosi morfologik shakl orqali real nutqiy qiymati namoyon bo'ladi.

Sintaktik sathda fe'ning gapdagi vazifasi va boshqa so'zlar bilan munosabati o'rganiladi. Fe'l ko'pincha kesim vazifasini bajaradi. Masalan, O'qituvchi darsni tushuntirdi. (bu gapda tushuntirdi kesim vazifasini bajargan); U kiob o'qishni yoqtiradi (fe'l boshqa so'zlarni o'ziga bog'layapti). Bu sath fe'ning gap tuzilishidagi yetakchi rolini ochib beradi. Tilshunos S.Ibrohimov sintaktik sathni: "Fe'ning gapdagi bog'lanish va kesim vazifasini tahlil qiluvchi vosita ", deb baholagan. [3/95-97-b]

Funksional-uslubiy sath bu fe'llarning nutq uslublarida qo'llanishi bilan bog'liq. Bir fe'l turli uslublarda turlicha ma'no nozikliklariga ega bo'ladi. Masalan:

1. Ilmiy uslubda : Tadqiqot natijalari e'lon qilindi;
2. Badiiy uslubda : Quyosh asta botib, ufqni qizartirdi.
3. Rasmiy uslubda : Buyruq ijro etldi.

Bu sath fe'ning uslubiy imkoniyatlarini ko'rsatadi. Akademik A. G'ulomov funksional-uslubiy sathni : "Fe'ning nutq uslubi va kommunikativ vazifasiga moslashuvini o'rganuvchi sath ", deb baholaydi. [4/60-63-bet] Unga ko'ra, fe'l bir xil grammatik shaklga ega bo'lishiga qaramay, turli uslublarda turlicha ma'no ifodalaydi. Bu sath orqali fe'ning nutqdagi rang-barangligini va uslubiy xususiyatini namoyon qilish mumkin.

Shunday qilib, fe'ning sathlari uning til tizimidagi o'rni , ma'nosi va nutqdagi funksiyasini to'liq ochib berishga xizmat qiluvchi ilmiy vosita hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. A. G'ulomov "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya." Toshkent: O'qituvchi, 1966-yil.
2. M. Mirtojiyev "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya"- Toshkent: Universitet , 1995-yil.
3. S. Ibrohimov "O'zbek tilining grammatik qurilishi ." Toshkent: Fan, 1974-yil
4. A. G'ulomov "Hozirgi o'zbek adabiy tili. Uslubiyat." Toshkent : O'qituvchi, 1972-yil
5. Akramova Sh & To'xtasinova N " Semantik valency in uzbek speech: sintaktik and lexical connections in verb phrases " International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. 4(1) 74-78-bet.